

“TASDIQLAYMAN”

“Yangi O‘zbekiston” universiteti
innovatsiya va tadqiqot ishlari bo‘yicha
prorektori


B. Yuldashev
“20”  2025-yil



**“YANGI O‘ZBEKISTON” UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILG‘OR TADQIQOTLAR INSTITUTI
USTAVI**

Toshkent – 2025

I. Umumiy qoidalar

1. “Yangi O‘zbekiston” universiteti huzuridagi Ilg‘or tadqiqotlar instituti (keyingi o‘rinlarda – Institut) O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 23-iyundagi PQ–5158-son qaroriga muvofiq, “Yangi O‘zbekiston” universiteti Kuzatuv kengashi yig‘ilishining 2024-yil 23-dekabrda 4-sonli bayoni va “Yangi O‘zbekiston” universiteti rektorining 2025-yil 20-yanvardagi YB/1-son buyrug‘i asosida tashkil etilgan.

Institut mustaqil ilmiy-tadqiqot muassasasi bo‘lib, o‘z faoliyatini “Yangi O‘zbekiston” universiteti (keyingi o‘rinlarda – Universitet) huzurida amalga oshiradi.

Institut faoliyati Respublika ilmiy-texnik taraqqiyoti ustuvor yo‘nalishlaridan, fundamental, davlat ilmiy-texnik va innovatsion dasturlar hamda ilmiy loyihalarga qo‘yilgan talablardan kelib chiqqan holda belgilanadi. Institut istiqbolli fundamental, amaliy va innovatsion ilmiy-tadqiqot loyihalarini ishlab chiqadi va uni iqtisodiyotning turli tarmoqlariga tadbiq etadi, tashkiliy, tarkibiy va moliyaviy masalalarni hal qiladi.

2. Institut o‘z faoliyatida O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senati qarorlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlari, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari va farmoyishlari hamda Universitet qaror, buyruq va farmoyishlari, shuningdek ushbu Ustavga amal qiladi.

3. Institut yuridik shaxs hisoblanadi. Tashkiliy huquqiy shakli – davlat muassasasi. Operativ boshqaruvida o‘ziga tegishli mol-mulkka ega va ushbu mol-mulk bo‘yicha o‘z majburiyatlariga muvofiq javob beradi, o‘z nomidan mol-mulk sotib olishi va mulkiy hamda nomulkiy huquqlarni amalga oshirishi, sudlarda da‘vogar va javobgar bo‘lishi mumkin.

Institut o‘z faoliyatini yuritish uchun mustaqil balansga, bank muassasalarida milliy va xorijiy valyutadagi hisob raqamiga va boshqa raqamlarga, O‘zbekiston Respublikasi Davlat gerbi tasviri tushirilgan, o‘z nomi yozilgan dumaloq muhrga, burchakli shtampga, emblemaga hamda boshqa atribut va rekvizitlarga ega.

4. Institutning to‘liq nomi:

o‘zbek tilida – “Yangi O‘zbekiston” universiteti huzuridagi Ilg‘or tadqiqotlar instituti;

rus tilida – Институт перспективных исследований при Университете “Новый Узбекистан”;

ingliz tilida – Institute for Advanced Studies at New Uzbekistan University.

Institutning yuridik manzili: O‘zbekiston Respublikasi, 100000, Toshkent shahar Mirzo Ulug‘bek tumani, Movarounnahr ko‘chasi, 1-uy.

II. Institutning asosiy vazifalari

5. Institut faoliyati energetika va qayta tiklanuvchi energiya manbalari, yashil iqtisodiyot, materialshunoslik, lazer va nanotexnologiyalar, biotexnologiya va bioinformatika, fizika va astronomiya, kosmologiya va kosmik texnologiyalar, ekologiya va iqlim o'zgarishlari, fizika-kimyo va jamiyatning boshqa ustuvor sohalaridagi ilmiy tadqiqotlarning belgilangan tartibda tasdiqlangan asosiy yo'nalishlari va dasturlari, shuningdek ilmiy tadqiqot ishlarining istiqbolli rejalari asosida belgilanadi.

6. Institutning eng muhim vazifalari quyidagilardan iborat:

mamlakat sanoatining muhim tarmoqlari, ayniqsa metallurgiya, kimyo, elektrotexnika, shuningdek axborot texnologiyalar va atrof-muhit sohalarida ilmiy-tadqiqot ishlarini amalga oshirish;

Universitetda ilmiy-tadqiqot yo'nalishlarida zamonaviy ilmiy laboratoriyalar bazasini tashkil etish orqali ilmiy-tadqiqot infratuzilmani rivojlantirish;

xorijiy va mahalliy grant mablag'larini jalb qilish;

talabalarni ilmiy-tadqiqot ishlariga jalb qilish orqali ularni ilm-fanga qiziqishini oshirish, bilim va amaliy ko'nikmalarini rivojlantirish;

Universitetni 2030-yilga qadar xalqaro reyting tashkilotlar ro'yxatidagi eng yuqori 1 000 ta oliy ta'lim muassasalari qatoriga kirishiga ko'maklashish;

Universitetga yuqori salohiyatli professor-o'qituvchi va olimlarni jalb etish.

III. Institutning ilmiy va tashkiliy faoliyati

7. Institut o'z zimmasidagi vazifalariga muvofiq quyidagi ishlarni amalga oshiradi:

"Scopus" ilmiy ma'lumotlar bazasiga kiruvchi nufuzli ilmiy jurnallarda (Q1 va Q2) ilmiy qo'lyozmalar chop etish;

innovatsion materiallar va nanotexnologiyalar yordamida O'zbekistonda yuqori sifatli sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishni kengaytirishga ko'maklashish;

bioinformatika orqali kasalliklarni diagnostika qilish texnologiyalarini rivojlantirishga, yangi biotibbiy texnologiyalar yordamida aholining sog'lig'ini yaxshilashga va sog'liqni saqlash tizimiga zamonaviy usullarni tatbiq qilishga doir ilmiy tadqiqotlarni olib borish;

"yashil iqtisodiyot", qayta tiklanuvchi energiya manbalari hamda resurstejamkor texnologiyalar bo'yicha tadqiqotlarni rivojlantirish va ishlanmalarni yaratish;

fizika va astronomiya yo'nalishlari bo'yicha fundamental muammolarni o'rganish, eksperimental ma'lumotlarni qayta ishlashning yangi modellari va usullarini ishlab chiqish;

o'zining faoliyat ixtisosiga ko'ra, Universitetning ustuvor yo'nalishlari bo'yicha fundamental va amaliy tadqiqotlar olib borish, shu tadqiqotlar asosida iqtisodiyot tarmoqlarining rivojlanishiga ko'mak beruvchi ilmiy texnika taraqqiyotiga yangi imkoniyatlarini ochib berish;

fundamental, amaliy va innovatsiya, startap, ilmiy tadqiqotlari hamda laboratoriya ilmiy sinov, tajriba va tadqiqot ishlarini olib borish;

kosmik apparatlar ma'lumotlarini qayta ishlash va tahlil qilishni amalga oshirish;

fizika va astronomiya yo'nalishlari bo'yicha fundamental muammolarni o'rganish, eksperimental ma'lumotlarni qayta ishlashning yangi modellari va usullarini ishlab chiqish;

olingan natijalarni vazirliklar, idoralar, ishlab chiqarish birlashmalari bilan birgalikda sanoat, qishloq xo'jaligi va ijtimoiy-madaniy qurilishlarga joriy etish va ulardan foydalanish ishlarida qatnashish;

zarurat tug'ilganda, ilmiy tadqiqotlar mavzusini yangilaydi, dolzarb bo'lmagan muammolarga oid ishlarni o'z vaqtida to'xtatish bo'yicha choralar ko'rish, Institut tarkibiga kerakli o'zgartirishlar kiritish;

agar Institut tegishli fundamental yoki amaliy muammolar, ilmiy-texnik dasturlar, topshiriq yoki mavzularga boshchilik qilsa, u holda belgilangan tartibda muvofiqlashtirishi lozim bo'lgan muammolar, topshiriq va mavzular yuzasidan yig'ma hisobot tuzish va yuborish;

ilmiy va ilmiy-texnikaviy muammolarga bag'ishlangan simpoziumlar, konferensiyalar va kengashlar tashkil etish va o'tkazish, tarmoqqa oid ilmiy va ilmiy-texnika jamiyatlari ishida ishtirok etish;

ilmiy kadrlar tayyorlash, shuningdek, ularning malakasini oshirish, shtat tarkibini malakali olimlar va yosh ilmiy xodimlar bilan doimo to'ldirib borish;

xalqaro, jumladan tashqi iqtisodiy faoliyat asosidagi hamkorlik ishlarini amalga oshirish;

ilmiy bilimlarni keng ko'lamda targ'ibot qilish ishlarini olib borish;

Institutda bajarilgan ishlar bo'yicha ilmiy va mualliflik ustuvorligini hamda davlat manfaatlarini himoya qilish;

ilmiy-texnikaviy va ijtimoiy taraqqiyot, moddiy rag'batlantirish jamg'armalarini tashkil etish;

qonunchilikda taqiqlanmagan boshqa ishlarni amalga oshirish.

IV. Institutning tuzilmasi

8. Institut ta'sischisi Universitet hisoblanadi.

9. Institut tuzilmasi, mehnatga haq to'lash setkasi va shtatlar jadvali Universitet bilan kelishilgan holda Institut tomonidan mustaqil ravishda ishlab chiqiladi va tasdiqlanadi hamda zarur hollarda, o'zgartirishlar kiritiladi.

10. Institut boshqaruvi O'zbekiston Respublikasi qonunlari va ushbu Ustav asosida amalga oshiriladi. Institut boshqaruv tuzilmasiga quyidagilar kiradi:

“Yangi O'zbekiston” universiteti;

Institut kengashi;

Direktor.

11. Institutning tarkibiy tuzilmasida, bo'limlar, laboratoriyalar va boshqa ilmiy, ilmiy-uslubiy, ishlab chiqarish, ma'muriy-xo'jalik, yordamchi, xizmat ko'rsatuvchi bo'linmalar hamda markaz va tayyorlov bo'limlari bo'lishi mumkin.

12. Ma'lum maqsadlarni ko'zlab tuzilgan ba'zi-bir dastur va loyihalarni shuningdek, ayrim topshiriq va buyurtmalarni bajarish maqsadida, Institutda tarkibiy bo'linma (laboratoriyalar, bo'limlar, ichki tadqiqot guruhlar) sifatida, institut bo'yicha va muassasalararo markazlar va vaqtinchalik jamoalar tuzilishi mumkin.

13. Institutda ishlanmalarni iqtisodiyot tarmoqlariga joriy etishni tezlashtirish maqsadida, belgilangan tartibda, mustaqil balansga ega bo'lgan konstruktorlik byurolari va tajriba ishlab chiqarish bo'linmalari va boshqa korxonalar tuzilishi mumkin.

14. Institut belgilangan tartibda, O'zbekiston Respublikasi Qonunlari asosida ishlovchi va Institut ixtisosligiga mos keluvchi kichik va qo'shma korxonalar, aksionerlik jamiyatlari va boshqa tijorat va xo'jalik hisobidagi korxonalar tashkil etishi va ularga ta'sischi bo'lishi mumkin.

15. Universitet rektori buyrug'i bilan, asosiy (bazaviy) tashkilot sifatida Institut qoshida Institut kengashlar tuzilishi mumkin.

Institut kengashi yetakchi olim hamda mutaxassislarni shartnoma asosida jalb qilgan holda tuzilishi mumkin.

V. Institutni boshqarish

16. Universitet:

Institut Ustavini va unga kiritilayotgan qo'shimchalar va o'zgartirishlarni tasdiqlaydi;

Institutga malakali tadqiqotchilar, jumladan xorijiy mamlakatlar mutaxassislarni jalb qilishga yaqindan ko'maklashadi;

laboratoriyalar va bo'limlar ochilishidan kelib chiqib, Institutni zarur moddiy-texnika vositalari, ilmiy adabiyotlar, laboratoriya asbob-uskunalar, sarflanadigan laboratoriya materiallari bilan butlash hamda ilg'or elektron ma'lumotlar bazalariga

doimiy ulanishini ta'minlash choralarini ko'radi;

Institutga homiylik, grant va budjetdan tashqari mablag'larni, texnik ko'mak hamda qonunchilik hujjatlari bilan taqiqlanmagan boshqa mablag'larni jalb etishga ko'maklashadi.

17. Institut faoliyatining asosiy masalalarini ko'rish uchun Institut kengashi tashkil etiladi.

Institut kengashi Institutning umumiy rahbarligini amalga oshiradigan kollegial organ hisoblanadi. Institut kengashi a'zolarining soni Institut xodimlari soniga nisbatan belgilanadi. Institut kengash tarkibiga boshqa tashkilotlarda ishlayotgan yetakchi olimlar va mutaxassislar taklif qilinishlari mumkin.

Universitet rektori Institut kengashning raisi bo'ladi u yo'qligida bu vazifani Universitetning innovatsiya va tadqiqot ishlari bo'yicha prorektor bajaradi.

Institut kengashi faoliyati belgilangan tartibda tasdiqlangan Institut kengashi to'g'risidagi nizom asosida amalga oshiriladi.

18. Institutni bevosita boshqarish Universitet tomonidan lavozimga tayinlanadigan va lavozimidan ozod etiladigan direktor tomonidan amalga oshiriladi.

Institut direktorining funksional vazifalari Universitet tomonidan tasdiqlanadi.

Direktor Institut faoliyatiga, shuningdek, Institutning Ichki tartib-qoidalarini hamda mazkur Ustavda belgilangan majburiyatlar uchun to'la mas'uldir.

Direktor O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq Institut nomidan ish olib boradi, barcha idoralar, muassasalar, korxonalarda uning vakili sifatida qatnashadi, Institutning mol-mulkiga mas'ullik qiladi, shartnomalar tuzadi, ishonchnomalar beradi, bank muassasalarida Institutning hisob raqamlarini ochadi, moliyaviy mablag'lardan o'rnatilgan tartibda foydalanish bo'yicha buyruq va farmoyishlar beradi.

19. Direktor Institutning vakolati doirasida:

Institut faoliyatiga rahbarlik qiladi hamda Institutga yuklangan maqsad va vazifalarni bajarilishi uchun javobgar hisoblanadi;

yuridik xizmati xodimini tegishli adliya organi bilan kelishilgan holda lavozimga tayinlaydi va lavozimidan ozod etadi;

Institutning direktor o'rinbosari lavozimiga nomzodni tavsiya etadi va Institut xodimlarining vazifalari hamda mas'uliyatlarini belgilaydi;

Institut xodimlari, shuningdek ilmiy-xodimlari bilan O'zbekiston Respublikasi mehnat qonunchiligida belgilangan tartibda mehnat shartnomalarini tuzadi va bekor qiladi;

Institut tarkibiga kirgan laboratoriya va bo'linmalarning vazifalarini belgilaydi va ular to'g'risidagi nizomlarni tasdiqlaydi;

Universitet bilan kelishilgan holda Institutning ichki tartib-qoidalarini tasdiqlaydi;

o'rnatilgan tartibda tegishli me'yoriy-huquqiy hujjatlarga muvofiq laboratoriyalarni tashkil etish, birlashtirish, ajratish va tugatish yuzasidan Institut kengashi qarorlarining ijrosini ta'minlaydi;

loyihalar tuzishda, joriy va kelajak ilmiy-tadqiqot ishlar bajarishga, ilmiy kadrlar tayyorlashga, Institut mablag'larini ilmiy-tadqiqot mavzulari bo'yicha taqsimlash yo'li bilan moliyaviy va moddiy-texnikaviy ta'minlashga rahbarlik qiladi;

Institut ilmiy-tadqiqot ishlarining yillik rejasini tuzadi va tasdiqlaydi;

Universitetga belgilangan tartibda hisobot taqdim qiladi va Institutning ilmiy-tashkiliy faoliyatining natijalari haqida ma'lumot beradi;

ilmiy-tadqiqot ishlari bo'yicha hisobotlarni tasdiqlaydi;

Institutning xalqaro ilmiy aloqalari bo'yicha ishlariga rahbarlik qiladi va belgilangan tartibda xorijiy ilmiy muassasalar va olimlar bilan hamkorlik rejalarining bajarilishini nazorat qilishni ta'minlaydi;

xodimlarni ijtimoiy himoya qilish choralarini ko'radi;

mehnat qonunchiligi, mehnatni muhofaza qilishning qoida va me'yorlariga, texnika xavfsizligiga, yong'indan saqlash xavfsizligiga, ishlab chiqarish sanitariyasiga, davlat ijtimoiy sug'urtasiga va mehnat intizomiga rioya qilishni ta'minlaydi, mehnatni tashkil etishni doimo takomillashtirib boradi, shuningdek, o'z balansidagi xususiy mulklarning saqlanishini ta'minlaydi;

O'zbekiston Kasaba uyushmalari Federatsiyasining ustaviga asosan ish yuritadigan Institut Kasaba uyushmasi bilan jamoa shartnoma asosida ish olib boradi.

Institut direktoriga o'zi ishlayotgan Institutda boshqa tashkilotlarda haq to'lanadigan rahbarlik lavozimida (ilmiy va ilmiy-metodik rahbarlikdan tashqari) o'rindoshlik bo'yicha ishlashga ruxsat etilmaydi. Direktor o'z vazifalarini o'rindoshlik bo'yicha bajarishi mumkin emas.

VI. Institutning huquq va majburiyatlari

20. Institutga berilgan huquq Institut direktori va boshqa mansabdor shaxslari tomonidan amalga oshiriladi.

21. Institutning huquqlari quyidagilar:

vakolatiga kiradigan masalalar hamda unga yuklangan vazifalar va funksiyalarni bajarish bilan bog'liq bo'lgan qarorlar, buyruqlar, ko'rsatmalar

qabul qilish, zarur bo'lganda, boshqa davlat tashkilotlari bilan birgalikda tegishli qarorlar qabul qilish;

Institut vakolatiga kiradigan masalalarda belgilangan tartibda sudlarga arizalar va da'volar kiritish;

qonunchilikda belgilangan tartibda budjetdan tashqari jamg'armalarga ega bo'lish;

Institut nomidan belgilangan tartibda shartnomalar tuzish;

davlat organlari va manfaatdor shaxslardan o'z vakolati doirasida zarur axborotlarni so'rash va olish;

qonunchilik hujjatlariga muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo'lishi mumkin.

22. Institutning majburiyatlari quyidagilar:

o'ziga yuklangan vazifa va funksiyalarni samarali bajarish;

o'zi qabul qilgan qarorlar hamda buyruqlarni o'z vaqtida, sifatli va to'liq bajarish;

faoliyatini rivojlantirish bo'yicha tasdiqlangan dasturlar, chora-tadbirlar rejasi, "yo'l xaritalari" va boshqa dasturiy hujjatlar ijrosini samarali tashkil etish va bajarish;

o'ziga biriktirib berilgan mulklar, shu jumladan, ko'chmas mulklardan maqsadli foydalanish;

Institutga qonunchilik hujjatlariga muvofiq boshqa majburiyatlar ham yuklanishi mumkin.

VII. Institut mulki va moliyalashtirish manbalari

23. Institut faoliyatini mazkur Ustavga muvofiq ta'minlash maqsadida, u quyidagilarga ega bo'lishi mumkin:

binolar va majmualar, inshootlar, qurilmalar ko'rinishidagi mulkka, shuningdek iste'molchilik, ijtimoiy, madaniy va boshqa vazifalarni bajaruvchi boshqa zarur mulkka;

Institut o'z balansida O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari bilan belgilangan tartibda ajratilgan doimiy (muddatsiz) va beg'araz foydalanadigan yer uchastkalariga.

24. Institutning mulki quyidagi hollarda qonunchilik hujjatlariga muvofiq belgilangan tartibda muassis bilan kelishgan holda tasarruf etiladi:

asosiy vositalarni sotish, hisobdan chiqarish (binolari va inshootlari, shu jumladan, qurilishi tugallanmagan binolari va inshootlaridan tashqari);

O'zbekiston Respublikasi Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi vazirligi

huzuridagi Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi sohasida nazorat qilish inspeksiyasining hududiy bo'linmalari, qurilish sohasidagi loyihalashtirish tashkilotlari, maxsus litsenziyaga ega bo'lgan tashkilotlar hamda ilmiy-tadqiqot muassasalarining xulosasiga muvofiq yaroqsiz deb topilgan hamda vakolatli organlar tomonidan buzish to'g'risida qaror qabul qilingan ko'chmas mulk obyektlarini buzish;

O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi yoki uning hududiy bo'linmalari roziligi bilan avtotransport vositalarini xarid qilish, bino va inshootlarni sotib olish va/yoki qurish;

mulkni davlat muassasasi faoliyati maqsadlariga muvofiq bo'lmagan boshqacha tarzda tasarruf etish.

Bino va inshootlar (shu jumladan, qurilishi tugallanmagan bino va inshootlar), shuningdek, davlat muassasasiga tegishli aksiyalar (ulushlar) Davaktiv agentligi tomonidan sotiladi, Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasiga tegishli mol-mulk (bino va inshootlar, aksiyalar, ulushlar va boshqalar) hamda qonunchilikda nazarda tutilgan holatlar bundan mustasno.

Bunda bino va inshootlarni (shu jumladan, qurilishi tugallanmagan binolari va inshootlarni), shuningdek, davlat muassasasiga tegishli aksiyalarni (ulushlarni) sotishdan tushgan mablag'lar ularni sotib olish manbalaridan qat'i nazar, qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda taqsimlanadi, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va Vazirlar Mahkamasi hujjatlarida belgilangan hollar bundan mustasno.

25. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va Vazirlar Mahkamasining hujjatlarida nazarda tutilgan hollardan tashqari davlat muassasalariga xo'jalik jamiyatlarini ta'sis etish hamda ularning ustav fondi (ustav kapitali)da ishtirok etish taqiqlanadi.

26. Institutning bino va inshootlari (shu jumladan, qurilishi tugallanmagan bino va inshootlari), avtomototransport vositalari hamda boshqa asosiy vositalarini sotish va ijaraga berish, shuningdek, ularga tegishli aksiyalarni (ulushlarni) sotish qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda "E-auksion" elektron savdo platformasida auksion savdolari orqali amalga oshiriladi.

27. Institutning asosiy vositalarini hamda qurilishi tugallanmagan obyektlarini sotish yoki buzish quyidagi shartlardan biri mavjud bo'lgan taqdirda amalga oshiriladi, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va Vazirlar Mahkamasining hujjatlariga muvofiq sotiladiganlari bundan mustasno:

belgilangan xizmat muddatining tamom bo'lishi (to'liq yaroqsiz deb topilishi);

ularning jismoniy eskirishi, avariylar, tabiiy ofatlar, foydalanishning normal sharoitlari buzilishi oqibatida yaroqsiz holga kelishi;

ma'naviy eskirishi;

davlat muassasalari binolari qurilishi, kengaytirilishi, rekonstruksiya qilinishi, modernizatsiya qilinishi va qayta tashkil etilishi munosabati bilan bo'shab qolishi;

foydalanish zarurati bo'lmaganda.

28. Institutning operativ boshqaruvida bo'lgan mol-mulkdan foydalanishdan olingan hosil, mahsulot va daromadlar, shuningdek, davlat muassasasining shartnoma bo'yicha yoxud boshqa asoslarda vujudga kelgan mol-mulki ham uning operativ boshqaruviga o'tadi.

29. Institutning mol-mulki Vazirlar Mahkamasining qaroriga asosan garovga qo'yiladi. Bunda qonunchilik hujjatlarida belgilangan xususiylashtirilmaydigan davlat mulklari, shuningdek, xo'jalik jamiyatlariga o'zgartirilayotgan davlat muassasalari mulklarini garovga qo'yishga yo'l qo'yilmaydi.

30. Institutni tashkil qilish va uning faoliyat yuritishi uchun mablag'lar quyidagilar hisobiga shakllantiriladi:

“Yangi O'zbekiston” universiteti mablag'lari;

xo'jalik faoliyati va shartnoma asosida xizmatlar ko'rsatishdan tushadigan mablag'lar;

yuridik va jismoniy shaxslarning homiylik xayriyalari;

grant mablag'lari;

qonunchilik hujjatlari bilan taqiqlanmagan boshqa manbalar.

VIII. Moliya-xo'jalik faoliyati va moddiy-texnik bazasi

31. Institutga ushbu Ustavda nazarda tutilgan faoliyatni amalga oshirish va foydalanish maqsadida davlat tomonidan binolar, inshootlar, mulkiy majmualar, Institutning pasportiga muvofiq asbob-uskunalar, shuningdek iste'mol, ijtimoiy, madaniy va boshqa maqsadlar uchun zarur bo'lgan mulklar biriktirilgan.

Institutga ajratilgan yer uchastkalari muddatsiz bepul foydalanish uchun biriktirilgan.

32. Institutga jismoniy va yuridik shaxslardan sovg'a, hadya yoki vasiyat bo'yicha berilgan pul mablag'lari, mol-mulk va boshqa mulkiy obyektlarga, Institut faoliyatining samarasi hisoblangan intellektual va ijodiy mahsulotlarga, shuningdek o'z faoliyati orqali oladigan daromadlar va bu daromadlar hisobidan sotib olinadigan mulkiy obyektlarga egalik qilish huquqi berilgan.

33. Institut mol-mulkni ijaraga oluvchi va mol-mulkni ijaraga beruvchi sifatida faoliyat ko'rsatish huquqiga ega. O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlangan Davlat mulkini ijaraga berish tartibi to'g'risidagi nizomga muvofiq Institut o'ziga

biriktirilgan ijaraga berilishi qonun hujjatlariga zid bo'lmagan binolar, inshootlar va ularning qismlari davlat mulki va boshqa mol-mulklarni Institut kengashining roziligi bilan tasarruf etish huquqisiz, belgilangan narxlar bo'yicha ijaraga berishni amalga oshiradi.

34. Institutning asosiy faoliyatidan chetlanmagan tartibda pullik xizmat faoliyatini amalga oshirish mumkin. Institutda shug'ullanadigan tadbirkorlik faoliyati uning ustavida belgilangan vazifalarga mos kelishi kerak. Ilmiy-innovatsion ishlanmalarni tijoratlashtirishdan tushadigan daromadlar Institut ixtisosligi bo'yicha tovarlar (ishlar, xizmatlar)ni realizatsiya qilishdan olingan daromadlar tarkibiga kiradi.

35. Institut pullik xizmatlari, konsultatsiyalar va boshqa xizmatlar uchun narxlarni belgilash, soliq va qonunchilikda nazarda tutilgan boshqa majburiy to'lovlardan so'ng qolgan daromadni mustaqil tasarruf etish huquqiga ega.

36. Institut O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga hamda mazkur Ustavga zid bo'lmagan shartnomalarni tuzish, majburiyatlar va boshqa shartlarni belgilash bo'yicha masalalarni mustaqil hal qiladi.

37. Xodimlarga ish haqi to'lash shakli, tartibi va miqdori Universitet bilan kelishgan holda Institut tomonidan O'zbekiston Respublikasi qonunlari va qonun hujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshiriladi. Institut xodimiga lavozim maoshi, o'z funksional vazifalarni hamda mehnat shartnomasida nazarda tutilgan ishlarni bajarganligi uchun haq to'lanadi. Qo'shimcha maosh, ustama, moddiy yordam va boshqa moddiy rag'batlantirish tadbirlarining hajmi, Universitet bilan kelishgan holda Institut tomonidan ish haqi fondi doirasida qonunchilikda nazarda tutilgan tartibda va hajmda belgilanadi.

38. Institutda tashkil etilgan jamoat tashkilotlariga faoliyat ko'rsatishlari uchun zarur bo'lgan xonalarni ajratadi. Universitet hududida joylashgan tibbiyot tayanch maskani hamda talabalar, tinglovchilar va xodimlarga xizmat ko'rsatuvchi oshxona, bufetlar va boshqa umumiy ovqatlanish muassasalariga isitish, yoritish va suv ta'minoti bilan ta'minlangan xonalar ajratiladi.

39. Institutda tegishli binolarini ta'mirlash, rekonstruksiya qilish yoki yangilarini qurish, ularning moliyaviy ta'minoti qonunchilikda belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

40. Institut buxgalterlik va operativ hisob-kitob ishlarini yuritadi hamda belgilangan muddatlarda davlat statistika muassasalari va yuqori tashkilotlarga amaldagi qonunchilikda belgilangan ko'rinishlarda hisobotlar beradi.

IX. Xalqaro hamkorlik

41. Xalqaro faoliyatni amalga oshirishda Institut quyidagi huquqlarga ega:

xalqaro ilmiy-texnik va iqtisodiy hamkorlikni rivojlantirish, xalqaro anjumanlarni tashkil qilish va ularda ishtirok etish;

investitsiya loyihalarining ilmiy-texnik asoslarini ishlab chiqish;
grant loyihalarini mustaqil va hamkorlikda amalga oshirish;
jahon ilm-fan yutuqlaridan xabardor bo'lish, yangi texnologiyalarni jalb qilish;
xorijiy hamkorlar bilan birgalikda ilmiy-tadqiqot ishlarini bajarish, ilmiy kadrlarni tayyorlash va mutaxassislar malakasini oshirish.
Institut O'zbekiston Respublikasi qonunlariga zid bo'lmagan boshqa faoliyatni amalga oshiradi.

X. Yakunlovchi qoida

42. Mazkur Ustav vakolatli organlarda ro'yxatdan o'tkazilgan sanadan boshlab kuchga kiradi va Institut tugatilgunga qadar yoki Ustav yangi tahrirda tasdiqlangunga qadar amal qiladi.

43. Mazkur Ustavga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish Universitet bilan kelishgan holda amalga oshiriladi.

44. Institutni qayta tashkil etish va tugatish qonunchilikda belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

45. Mazkur Ustav qoidalari qo'llanishi bilan bog'liq nizolar qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda hal etiladi.

46. Mazkur Ustavda nazarda tutilmagan munosabatlar qonunchilik hujjatlariga muvofiq tartibga solinadi.